Hamkorlikdagi nashr: “Markaziy Osiyoda logistika va diplomatiya”

2022-yil may oyida Fransiyada Yan Aliks (Fransiya), Kuralay Bayzakova (Qozog‘iston), Yulduz Nicharapova (Qirg‘iziston) va Mirzohid Rahimov (O‘zbekiston) muharrirligida “Markaziy Osiyoda logistika va diplomatiya” (Yann Aliks, Kuralay Baizakova, Jildiz Nicharapova, Mirzohid Rahimov Logistics and diplomacy in Central Asia. Editions EMS, France. 2022. P.275.) nomli kitob nashr etildi.



LOGISTICS & DIPLOMACY IN CENTRAL ASIA

(Eds)
Yann ALIX
Kuralay BAIZAKOVA
Jildiz NICHARAPOVA
Mirzokhid RAKHIMOV

FONDATION Sefacil
LOGISTIQUE · PORTUAIRE · MARITIME
TECHNICAL SCHOOL OF INNOVATION AUCA
IFEAC

Kitob Toshkent (JIDU, 2021-yil oktyabr), Olmaota (Al Forobiy nomidagi KAZGU, 2021-yil noyabr) va Bishkekda (AUCA, 2022-yil yanvar) o‘tkazilgan uchta seminarning natijasidir.

Nashr dunyoning ijtimoiy-gumanitar fanlari bo‘yicha yetakchi va yosh tadqiqotchilari o‘rtasidagi keng hamkorlik asosida nashr etilgan bo‘lib, Markaziy Osiyo va Yevroosiyoda xalqaro munosabatlar va kommunikatsiyalarni rivojlantirishning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan. Tarmoqlararo yondashuvlar asosida Markaziy Osiyoda milliy, mintaqaviy va xalqaro transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirish holati ko‘rib chiqilib, ushbu loyihalarni amalga oshirishdagi mavjud muammolar ko‘rsatilgan.

Shuningdek, kitobda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmanistonning xorijiy davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan xalqaro aloqalari, mintaqaviy va transmintaqaviy loyihalari hamda sheriklik dasturlarini diversifikatsiya qilish va rivojlantirish istiqbollari belgilab berilgan.